

bosh ilmiy-metodik

markaz

2022

O‘quv-uslubiy majmua

**“TA’LIM MENEJERINING
INNOVATSION
KOMPETENTLIGI”**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

Barcha yo'nalishlar uchun

**“TA'LIM MENEJERINING INNOVATION
KOMPETENTLIGI”**

moduli bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUА

Toshkent – 2022

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **F.Zakirova**-pedagogika fanlari doktori, professor
R.Ishmuxammedov - katta o‘qituvchi

Taqrizchi: **M.Mirsolieva**-pedagogika fanlari doktori, dotsent

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2022 yil “24” dekbardagi 6/4-sonli bayonnomasi)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERAOL TA'LIM METODLARI.....	14
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	44
V. GLOSSARIY	67
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	80

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ta’lim muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning fuqaroligini shakllantirishdek muhim vazifani qo‘ydi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda oliv ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish yo‘lida ularga malakali rahbar kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini qo‘ymoqda.

Bu esa hozirgi vaqtida rahbar xodimlarni davr talabiga javob beradigan, buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta egallagan mohir mutaxassis bo‘lishlariga katta e’tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi ta’lim muassasalaridagi barcha xodimlar va rahbarlarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko‘nikmalari bilan qurollangan madaniyatli shaxs sifatida bo‘lishlarini yana bir bor ta’kidlab bermoqda.

Modulning maqsad va vazifalari

Modulning asosiy maqsadi tinglovchilarni rahbarlik mahorati, pedagogik mahorat, pedagogik takt, pedagogik texnika va pedagogik madaniyati nazariyasi hamda amaliyoti bo‘yicha bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlashdir. Pedagogik – psixologik yo‘nalishidagi tayyorgarlik tizimi tinglovchilarni o‘quv-tarbiyaviy jarayon asosida yotgan qonuniyatlarni egallahsga, rahbarlik faoliyati, rahbarlik mahorati va madaniyati mohiyatini tushunish, bu jarayonning uslub va tamoyillarini qadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimiga qo‘chirish malakasiga ega bo‘lish, rahbarlik mahorati va madaniyati, takt va texnikasini tizimiga solish va uni shakllantirish, yangi axborotlar, yangiliklar bilan boyitish, kengaytirish, rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu mavzu bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarini turli shaqlarda: muammoli ma’ruza, suhbat-munozara, audivizual vositalarni qo‘llangan holda evristiq suhbat, munozaralar tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar aktiv, interaktiv metodlarni axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etiladi.

Modulning o‘zlashtirish jarayonida tinglovchilarining egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yilgan talablar

Mazkur mavzu asosida tinglovchilar o‘zlarining faoliyatlarida boshqaruv, rahbarlik malakalarini oshirishlari hamda rahbarlik mahorati modulini o‘rganishda ilmiy tajriba va ishlab chiqarishni boshqarishga oid bilim va ko‘nikmalarni to‘laqonli o‘zlashtirgan bo‘lishlari bilan bir qatorda rahbarlik mahorati. Pedagogik madaniyat, takt va texnika asoslarini mukammal o‘rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tinglovchilar ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida fanning mazmuni, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning nazariy asoslari, qonun-qoidalarini va mavzuga tegishli bo‘lgan asosiy tushunchalarning izohi, fandagi yangiliklarni hamda rahbar faoliyatini tashkil etishning texnikasini o‘zlashtirishlari zarur.

Oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlari:

- innovatsion kompetentlik va uning o‘ziga xos xususiyatlarini;
- zamonaviy ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmun va mohiyatini;
- ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalarni;
- innovatsion kompetentlikni shakllanish bosqichlarini ***bilishi***;
- ta’lim menejeri faoliyatini ilmiy tashkil etish;
- ta’lim menejeri faoliyatini innovatsion texnologiyalari asosida tashkil etish ***ko‘nikmal va malakalariga*** ega bo‘lishi;
- ta’lim menejerining innovatsion usullari asosida takomillashtirish ***kompetensiyalarga*** ega bo‘lishi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi barcha modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		jumladan		
			Nazaiy	Amaliy
		jam'i		mashg‘ulot
1.	<p>Innovatsion kompetentlik va uning o‘ziga xos xususiyatlari.</p> <p>Zamonaviy ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmun va mohiyati. Ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalar. Rahbarning kasbiy kometentligi va mahorati.</p>	2	2	
2.	<p>Innovatsion kompetentlikni shakllanish bosqichlari.</p> <p>Innovatsion kompetentlik – innovatsion faoliyatning poydevori sifatida. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga aksiologik, akmeologik, kreativ, deontologik va refleksiv yondashuvlar. Rahbarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv stili: avtoritar, demokratik, liberal.</p>	2	2	
3.	<p>Innovatsion faoliyatda pedagogik mahoratning roli.</p> <p>Ta’lim menejeri faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllari (media aloqa, veb. muloqot, elektron qabul va boshqalar). Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash mazmuni, shakl va usullari.</p>	2	2	
4.	<p>Ta’lim menejeri faoliyatini ilmiy tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.</p> <p>Innovatsion faoliyat diagnostikasi va kvalimetriyasi. Boshqaruv madaniyati va rahbar ma’naviyati.</p>	2		2
5.	<p>Ta’lim menejeri faoliyatini interaktiv vositalarni qo‘llagan holda noan’anaviy tarzda innovatsion tashkil etish vositalari.</p> <p>Ta’lim menejeri faoliyatini interaktiv vositalarni qo‘llagan holda noan’anaviy tarzda innovatsion tashkil etish vositalari: audiovizual vositalar, media aloqa, veb, muloqot, evristik suhbat va boshqalar. Ta’lim menejerining innovatsion usullar asosida</p>	2		2

	takomillashtirish.			
6.	<p>OTM faoliyati yo'l xaritasini tuzish va amalga oshirishda ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi.</p> <p>Ta'lim menejeri kasbiy kompetentligini baholash indikatorlari va unga innovatsion yondoshuv.</p>	2		2
	Jami:	12	6	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- MAVZU: INNOVATSION KOMPETENTLIK VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. (2 soat)

Zamonaviy ta'lim menejerining innovatsion kompetentligi mazmun va mohiyati. Ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalar. Rahbarning kasbiy kometentligi va mahorati.

2-MAVZU: INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISH BOSQICHLARI. (2 soat)

Innovatsion kompetentlik – innovatsion faoliyatning poydevori sifatida. Ta'lim menejerining innovatsion faoliyatiga aksiologik, akmeologik, kreativ, deontologik va refleksiv yondashuvlar. Rahbarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv stili: avtoritar, demokratik, liberal.

3-MAVZU: INNOVATSION FAOLIYATDA PEDAGOGIK MAHORATNING ROLI. (2 soat)

Ta'lim menejeri faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllari (media aloqa, veb. muloqot, elektron qabul va boshqalar). Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash mazmuni, shakl va usullari. Innovatsion faoliyatda pedagogik mahoratning roli.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA'LIM MENEJERI FAOLIYATINI ILMIY TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. (2 soat)

Innovatsion faoliyat diagnostikasi va kvalimetriyasi. Boshqaruv madaniyati va rahbar ma'naviyati.

**2-MAVZU: TA'LIM MENEJERI FAOLIYATINI INTERAKTIV
VOSITALARNI QO'LLAGAN HOLDA NOAN'ANAVIY TARZDA
INNOVATSION TASHKIL ETISH VOSITALARI. (2 soat)**

Ta'lismenejeri faoliyatini interaktiv vositalarni qo'llagan holda noan'anaviy tarzda innovatsion tashkil etish vositalari: audiovizual vositalar, media aloqa, veb, muloqot, evristik suhbat va boshqalar. Ta'lismenejerining innovatsion usullar asosida takomillashtirish.

**3-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATI YO'L
XARITASINI TUZISHDA TA'LIM MENEJERINING INNOVATSION
KOMPETENTLIGI. (2 soat)**

OTM faoliyati yo'l xaritasini tuzish va amalga oshirishda ta'lismenejerining innovatsion kompetentligi. Ta'lismenejeri kasbiy kompetentligini baholash indikatorlari va unga innovatsion yondoshuv.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

«Blum kubigi» metodi:

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:

- **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
- **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)**
- **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
- **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
- **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
- **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**

2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O‘qituvchi kubikni stolga tashaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

“KWHL” metodi:

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -


“W1H” metodi:

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qaerda (joylashgan, qaerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



“VEER” metodi:

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyl muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarни



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi:

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi:

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mayjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



- Test
-

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“Insert” metodi:

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilarni	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1- MAVZU: INNOVATSION KOMPETENTLIK VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2 soat)

Reja:

- 1.1. Zamonaviy ta'lif menejerining innovatsion kompetentligi mazmun va mohiyati.
- 1.2. Ta'lif jarayonini innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalar.
- 1.3. Rahbarning kasbiy kometentligi va mahorati.

Tayanch tushunchalar: *innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyat bosqichlari, innovatsion jarayon bosqichlari, innovatsion muhit, kompetentlik.*

1.1. Zamonaviy ta'lif menejerining innovatsion kompetentligi mazmun va mohiyati.

«Kompetensiya» lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

Ushbu atamaning turli lug'atlardagi izohiga ko'ra, "Kompetensiya (lot. Competo erishayapman, munosibman, loyiqlaman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba" degan ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, o'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Pedagogika va psixologiya fanlarida yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lif amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida

bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «o‘quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999 yil) ta’lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e’tirof etildi.

Kompetentlik deganda ko‘pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko‘nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo‘naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo‘lishi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi.

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko‘nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog‘liq.

B.D.Elkoninning fikricha: “Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir.

Kasbiy kompetensiya va kompetenlik muammosi yuzasidan nafaqat mamlakatimiz balki dunyo miqyosida pedagog, psixolog, metodist, siyosatshunos, sotsiolog, filosof, lingvist va boshqa soha olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu sababli, tadqiqotchi olimlar kompetensiyani shaklan va mazmunan turlicha tasnif etadilar. Jumladan, mutaxassis olimlar fikrlariga ko‘ra kompetensianing turlari: ijtimoiy, maxsus, metodik, shaxsiy, texnologik, ekstremal, kommunikativ, psixologik, tashkilotchilik, informatsion, kreativ, innovatsion, lingvistik, pragmatik va boshqa kompetensiyalar tarzida talqin etiladi.


Bizning nazarimizda OTM rahbarlari faoliyati mazmunidan kelib chiqqan holda ularning kompetentligi yo‘nalishlarni qo‘yidagicha tasnif etish mumkin:

- huquqiy kompetentlik;
- boshqaruv kompetentligi;
- axborot kompetentligi;
- kommunikativ kompetentlik;
- psixologik-pedagogik kompetentlik;
- tashkilotchilik kompetentlik;
- kreativ kompetentlik;
- innovatsion kompetentlik;
- iqtisodiy-moliyaviy kompetentlik.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G‘arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan.

Innovatsion iborasiga bir qancha pedagog olimlar o‘zlarining turli hil fikrlarini aytib o‘tishgan. Jumladan pedagogika soxasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan A.I.Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Demak, innovatsion pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bu shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri esa ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Qo‘yidagi rasmida innovatsiyalarning klassifikatsiyasi keltirilgan:




1.2. Ta’lim jarayonini innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarishda xalqaro tajribalar.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

Ta’limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda xalqaro tajribalarda turli xil yondashuvlar mavjud.

Masalan, Amerika va Angliya mamlakatlarida innovatsion faoliyatni 4 bosqichda olib boriladi, ya’ni:


- 1) tayyorgarlik bosqichida muammoni tahlil etish asosida aniqlaydi,
- 2) mo’ljallanayotgan ta’lim tizimini loyihalaydi;
- 3) o‘zgarishlar va yangiliklarnirejalashtiradi;
- 4) o‘zgarishlarni amalga oshiradi.



Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta’sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

1.3. Rahbarning kasbiy kometentligi va mahorati.

OTM rahbar va pedagog xodimlari kompetentligi haqida fikr bildirishdan avval “OTM faoliyati samaradorligi kimlarga bog‘liq?” degan savolga javob bermoq lozim. Tadqiqotlar va hayotiy kuzatishlarning natijasiga ko‘ra, OTM faoliyati samaradorligiga ijobiy ta’sir etuvchi sub’ektlarni quyidagicha tasnif etish mumkin: OTMning rahbar-xodimlari, OTM professor-o‘qituvchilar, OTM talabalari, ish beruvchilar, ota-onalar, OTMdagi fuqarolik jamiyati institutlaridan iboratdir. Shu bois OTM rahbarlarining kompetentligi komponentlari avvalo jamoani boshqarishda, ikkinchidan esa ta’lim sifatini ta’minlovchi boshqa sub’ektlar bilan ishlash jarayonida namoyon bo‘ladi.



Rahbar kompetensiyasi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki uning shakllantirish bosqichlari mavjud bo‘lib, ushbu bosqichlar asosida ta’lim muassasasi rahbarlari tarbiyalanadi va shakllanadi. Ular quyidagi bosqichlardan iboratdir:

**Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari
Qobiliyatni aniqlash**

Tarbiyalash va shakllantirish

Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish)

Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish)

Rahbarlik cho'qqisi

OTM rahbari yoki bo'lajak rahbarlari qobiliyatini aniqlash

“Pedagogik, psixologik va tibbiy diagnostika” dasturi asosida amalga oshiriladi. Mazkur dastur turli bloklardan iborat bo‘lib, unda bo'lajak rahbar kadrning ijtimoiy, kasbiy, psixologik, ma’naviy, tibbiy holatlarini belgilab beruvchi mezonlar asosida tuzilishi mumkin. Har bir rahbarning shaxsiy diagnostika dasturi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

OTM rahbarlari o‘z faoliyatlarida **ilm-fan, tajriba, qobiliyat va kasbiy mahoratga** asoslangan holda o‘z-o‘zini namoyon etishi jamoani samarali boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy rahbar kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Loyihalashtirish
- Tashkillashtirish
- Tahsil qilish
- Nazorat qilish
- Motivatsiya berish

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu muhim vazifalar o‘rtasida mutanosiblik va uyg‘unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot yakdilligini ta’minlashdir. **Loyihalashtirish** vazifasi birinchi navbatda rahbar o‘z tashkilotining maqsadi, vazifalari, faoliyatni amalga oshirish jarayoni, uning natijalarini aniqlashi va belgilashi zarur. **Tashkillashtirish** belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqtini hisobini aniq belgilab olishi, ya’ni tashkilot turli bo‘limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo‘lgan

ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to‘liq **tahlil qilishi** maqsadga muvofiq. Bu olib borilayotgan ish va mahsulot natijalaridagi ba’zi holatlarning kamchiliginini joyida tushunib borishga imkon yaratadi. Rahbar strategik maqsadlarni ko‘zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga **asosli dalillar** ham zarur. Shu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o‘zaro qiyosiy tahlillarga ega bo‘lishi kerak. Boshqaruvdagi **nazorat qilish** vazifasi ta’lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud Qonun va boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan talablar asosida kechishini ta’minlaydi. **Rahbar ish jarayonini emas balki uning natijasini nazorat qilishi lozim.**

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetentlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur.

Yuqorida bayon etilgan rahbarning kompetentligi komponentlari rahbarning **yutug‘ini kafolatlaydigan omillar** hisoblanadi.

OTM rahbarining lavozimi faoliyatini innovatsion boshqarishda uning kasbiy refleksiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Kasbiy refleksiya-o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tushunish, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash demakdir.

O‘z faoliyatini har kuni refleksiya qilish rahbarning kompetensiyasini rivojlanib borishi uchun muhim zamin hisoblanadi.

Ta’lim muassasasining zamonaviy rahbari kompetensiyasiga ta’sir etuvchi omillar va xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular rahbar kompetensiyasini aniqlash va takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Keyingi yillarda rahbarning muhim kasbiy sifatlari masalasi dunyo miqyosida olimlar hamda amaliyotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Bir guruh mutaxassis olimlar 1500 ta amerikalik menejer va 41 ta yirik Yaponiya firmalari rahbarlarining o‘ziga xos bo‘lgan eng muhim sifatlarini bloklarga ajratganlar va ularni quyidagicha tabaqlashtirganlar:

A. Konseptual qobiliyat va xulq-atvor standartlari:

- dunyoqarashning kengligi, global yondashuv;
- uzoqni ko‘ra bilish va egiluvchanlik;
- tashabbuskorlik va dadillik, tavakkalchilikka moyillik;
- muntazam o‘z ustida ishslash va uzluksiz o‘qish.

B. Shaxsiy sifatlar:

- maqsad va yo‘nalishlarni aniq belgilash;

- o‘zgalar fikrini tinglash qobiliyati;
- xolislik, samimiyat va bag‘rikenglik;
- adolatli qarorlar chiqarish orqali xodimlarni joy-joyiga qo‘yish, ular imkoniyatlaridan to‘la foydalanish;
- shaxsiy yoqimtoylig;
- jamoa tashkil etish va unda uyg‘un muhitni ushlab tura olish qobiliyati.

V. Salomatlik.

Nazorat savollar:

1. Ta’lim innovatsiyalariga ta’rif bering.
2. Ta’lim innovatsiyalarini sanab bering.
3. Rahbarning innovatsion faoliyati bosqichlarini tushuntirib bering.
4. Innovatsion jarayon qaysi jarayonlarni o‘z ichiga oladi?
5. Rahbar kompetentligi deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. 1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Yermakov D.S. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii// “Pedagogika”. – 2011. - № 4. – S. 8-16.
3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.
4. Xripko V.V. Gorizonty intensifikatsii i innovatsionnosti obucheniya v vuze // «Alma Mater». – 2011 № 9.
5. G.J.Hasanova. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish. 2006. BDU – T., - B.11-12.

2-MAVZU: INNOVATSION KOMPETENTLIKNI SHAKLLANISH BOSQICHLARI (2 soat)

Reja:

- 2.1. Innovatsion kompetentlik – innovatsion faoliyatning poydevori sifatida.
- 2.2. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga aksiologik, akmeologik, kreativ, deontologik va refleksiv yondashuvlar.
- 2.3. Rahbarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv stili: avtoritar, demokratik, liberal.

Tayanch tushunchalar: *innovatsion muhit, innovatsion tayyorgarlik, aksiologik yondashuv, akmeologik yondashuv, kreativ yondashuv, deontologik yondashuv, refleksif yondashuv, boshqaruv stili.*

2.1. Innovatsion kompetentlik – innovatsion faoliyatning poydevori sifatida.

Ma’lumki, innovatsion tayyorgarlik bu - mutaxassisining o‘zlashtirilgan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayangan xolda pedagogik jarayonni loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natijaga erishish jarayonidagi nostandard tafakkur tarzi va ish tartibiga asoslangan holda yangi yo‘nalishdagi o‘qitishning shakl, metod va vositalarini izlab topishi va amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlari yig‘indisidir.

Yaqin o‘tmishda “Innovatsion ta’lim”, “Innovatsion faoliyat” va “Innovatsion jarayonlar” terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta’lim so‘zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o‘zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi.

Innovatsion ta’lim - ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalari, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim

“Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klub”da qo‘llanilgan.

Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Ta’lim innovatsiyalari - ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar


Ta’lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta’lim konsepsiyasidagi, o‘quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o‘qitish usullaridagi yangilik va o‘zgarishlardir. Ta’lim sohasida innovatsion jarayonlar so‘zining tub ma’nosida

pedagogikaning ikkita muhim – o‘rganish, umumlashtirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi va pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizi bir – biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo‘lishi kerak. Aynan, innovatsion faoliyat xizmat ko‘rsatish bozorida oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o‘qituvchining kasb mahoratining o‘sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham, innovatsion faoliyat o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarning o‘quv jarayoniga ijodiy faoliyati bilan uzlucksiz bog‘liq.

Ta’lim muassasasida pedagogning innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun “**Innovatsion muhit**” shakllangan bo‘lishi kerak, ya’niy pedagogik jamoda umuman ta’lim muassasida ijodiy, samimiy do‘stona sharoit, unda pedagog-o‘qituvchi o‘zini erkin xis qila olishi va jamoda ichki intilish moddiy-ma’naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda pedagog-o‘qitiuvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga yo‘naltiriladi. Natijada innovatsion jarayon- yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

2.2. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga aksilogik, akmeologik, kreativ, deontologik va refleksiv yondashuvlar.

V.A.Slastenin o‘qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko‘rishiga olib keladigan sub’ektiv va ob’ektiv omillarini asoslab berdi. Ob’ektiv omillarga olingan ta’limning sifatini, sub’ektiv omillari esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas’uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi: *iste’dod nishonalar; uquvlilik; qobiliyat; iste’dod; oila tarbiysi sharoiti; o‘quv yurti; o‘z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriylar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- axborotlarga tashnalik, muammolardagi g‘ayriodatiylikka va yangilikka bo‘lgan his-tuyg‘u, professionalizm, bilishga bo‘lgan chanqoqlik (N.V. Vishnekova).

O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga nisbatan yondoshuvlari

Gumanistik aksiologiya - aksiologiyaga insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan – bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovatsion faoliyatga aksilogik yondoshuv insonning o‘zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

Akmeologik yondoshuv - akmeologiya (*akme*) – yunoncha oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng yaxshi davr degan manolarni bildiradi.

Kreativ yondoshuv – termini AQShda XX asrning 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatilini bildiradi.

Refleksiv yondoshuv – (lotincha *reflexio* - ortga qaytish) subektning o‘z (ichki) psixik tuyg‘u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o‘zini boshqalarga qiyos qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xosliklarning bir butunligi va uyg‘unligi, ichki birligi; shaxsning o‘z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o‘zini namoyon qila olishi va o‘zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o‘zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining o‘rnini anglay olishi (V.A. Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qibiliyati, xislatini bildiradi.

Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil

omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar, Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining raxonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi;

Ikkinci bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi;

Uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi;

To'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiysi va metodikasi yaratiladi.

V.A. Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- Shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

- Kreativlik. Bu – hayolot, faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- Kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallah qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallah qobiliyati; mualliflik konsepsiysi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

• O‘qituvchining individual qobiliyati. Bu - ijodiy faoliyat sur’ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat’iyatlik, o‘ziga ishonch; mas’uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik, o‘zini tuta bilish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasidagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o‘qituvchilarining kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri - o‘qituvchi shaxsidir.

2.3. Rahbarning rahbarlik faoliyatida boshqaruv stili: avtoritar, demokratik, liberal.

Rahbarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasiga nisbatan rahbarlik qilishi ikki tomonlama amalga oshiriladi: tashkiliy va uslubiy.

Tashkiliy tomoni – pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish. harakatga keltira olish, pedagogik jarayonni amalga oshirishda o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqara olishdir.

Uslubiy tomoni – rahbarlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy, amaliy, kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lish hamda o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishdek ilmiy malakaga ham ega bo‘lishdan iborat. **Rahbar ish tashkilotchisi emas, barchani ishga jalb etib, tashkillashtiruvchidir, ya’ni tashkilotchilarning tashkilotchisi.** Rahbarning rahbarlik tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin.

RAHBARLIK – bu:

yo‘naltirish - pedagogik va o‘quvchilar jamoasini milliy istiq... lol mafkurasi, davlat siyosatining asosiy g‘oyalari, tamoyillari asosida faoliyat ko‘rsatishlariga yo‘naltirish

vazifa qo‘yish - ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan qonunlar, rasmiy hujjatlar asosida pedagogik va o‘quvchilar jamoasi oldiga shaxs hamda jamoani tarbiyalash bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yish

o‘rgatish - pedagogik jamoani ta’lim-tarbiya jarayonini... samarali tashkil etishi uchun aniq maqsad qo‘yish va kerakli metod, shakllarni topishga o‘rgatish

yordam berish - jamoada mehnat faoliyati va ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va faollashtirishga yordam berish

qo‘llash - pedagogik va o‘quvchilar jamoasi, o‘qituvchi va o‘quv... chilar tashabbusini, ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish

maslahat berish - jamoaga, o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘z... imkoniyatlarini to‘liq ishlatishlari uchun kerakli amaliy va uslubiy maslahat berish

kuzatish - kattalar va bolalar jamoasining saviyasi, axloqiy... va madaniy-

ma'rifiy o'sishini, takomillashib borishini kuzatish, o'rganish

tartibga solish - jamoaning ishga bo'lgan va o'zaro munosabatlarini,... jamoa a'zolarining mehnat faoliyatlarini ijobjiy- salbiy tomonlarini tartibga solish

talab etish - har kimning o'z vazifasini va berilgan topshiriq-... larni o'z vaqtida bajarishlarini talab etish

ko'rsatma berish - jamoaga mehnat faoliyatlarini tashkil... etishlariga kerakli ko'rsatmalar berish

nazorat qilish - o'qituvchilar, o'quvchilar, xodimlar faoliyatini va... ularning natijalarini muntazam nazorat qilish va baholab borish

boshqarish - barchani ishlashga, o'z kasbiy vazifalarini bajarish, qaror qabul qilish, nazorat qilishga undash

Ta'lismuassasasini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari va faoliyatni innovatsion boshqarish

Boshqarish bu-boshqalarni ishlashga undash, nazorat qilish, to'g'ri qaror qabul qilish, jarayonni tashkil etish va boshqarish demakdir.

Ta'lismuassasiga oid pedagogik boshqaruvni ko'rib chiqadigan bo'lsak ta'limga yaxlit maqsadini ko'ra olamiz, ya'ni ta'lum-tarbiya samaradorligini oshirish va tizim faoliyatini ta'minlash, jamiyat tomonidan ta'lum tarbiyaga qo'yilayotgan talablarni bajarishini ta'minlash uchun tizimning takomillashuvini oshirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Pedagogik boshqaruvning predmeti: ta'lum-tarbiyani rejalashtirish, amalga oshirish kabi vazifalarni bajarib kelayotganlarning faoliyati. Pedagogik boshqaruv manbalari: ta'lum-tarbiya sohasiga oid bo'lgan ilm-fanning yutuqlari –ta'lum falsafasi, ta'lum sotsiologiyasi, ta'lum psixologiyasi, ta'lum va tarbiya nazariyasi, ta'lum iqtisodi, ta'lum huquqi, ta'lum tibbiyoti kabilarning natijalari.

Boshqarishning asosan 3 ta turi mavjud bo'lib, ular **demokratik, avtoritar, liberal** tarzda namoyon bo'ladi. OTM rahbari mazkur boshqaruvning har uchala turlaridan vaziyatdan kelib chiqqan holda, maqsad va masalaning qo'yilishiga qarab foydalanadi. Lekin, ularning bittasi u yoki bu rahbarda ustunlik qilishi mumkin.

Avtoritar rahbar barcha ko‘rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga do‘q-po‘pisa, keskin ta’qiqlash kabi qat’iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi qanday bo‘lsada, jamoaga o‘z hukmini qat’iy o‘tkazishdan iboratdir. Uning nutqi ham aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo‘ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarini maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilishi sof sub’ektiv bo‘lib, bu narsa rahbarning kayfiyatiga bog‘liq. Jamoa a’zolarining tilak-istiklari, fikrlari, maslahatlari juda kam holatlardagina inobatga olinadi, ko‘pincha, bunday istaklar yoki maslahatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri do‘q-po‘pisa, kamsitish, ma’naviy jazolash yo‘li bilan cheklanadi. Bunday rahbar kelajak rejali, biror ishni qanday amalga oshirmoqchi ekanini jamoadan sir tutadi, uning fikricha, agar ularga aytsa, obro‘yiga salbiy ta’sir etadi.

G. Gibsh va F. Forverglarniig tahlil qilishlaricha, avtoritar rahbar bosh bo‘lgan ishlarning samaradorligi ancha yuqori bo‘lib, ko‘rsatkichlar ham yuqori bo‘lar ekan. Lekin jamoadagi ruhiy-ma’naviy muhit og‘ir, tang bo‘lib, bu narsa odamlarning jamoadan, ishdan qoniqmasliklariga olib keladi, bunday rahbar yetakchi bo‘lgan korxonalardagi ishchilar o‘z ish joylarini osonlik bilan almashtirishlari mumkin.

Demokratik rahbar, ushbu usulda jamoani qonun talablari, adolat mezonlari, jamoaning fikri, talab va ehtiyojlariga tayangan holda boshqaradi. U o‘z qo‘l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdoi.

Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning qobiliyatini hisobga oladi, shaxsiy moyilliklarni ham hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlar taklif ma’nosida beriladi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, unda o‘rtoqlarcha do‘stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, lavozimini oshirish, kamchiligiga baho berish (ishdag) doimo jamoa a’zolarining fikri bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Tanqid, ko‘pincha, taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish holida «aybdor» ga yetkaziladi. Har bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Bunday boshliqning fazoviy ijtimoiy holati «jamoa ichida». Jamoada tanqid, o‘z-o‘zini tanqid shunday yo‘lga qo‘yilganki, uning oqibatida hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko‘proq boshliq emas, jamoaning boshqa faollari—norasmiy liderlar tanqid qiladilar. Boshliq yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarni jamoatchilik oldida bo‘yniga olishdan qurqmaydi. Chunki undagi mas’uliyat hissi nafaqat yuqori boshqaruv tashkilotlari a’zolari bilan muloqot paytida, balki xodimlar bilan muloqot paytida ham sezilib turadi va qo‘yilgan topshiriq yuzasidan mas’uliyatni boshqalarga ham bo‘lib berishni yaxshi ko‘radi. Boshliqning xodimlaridan siri yo‘q, shuning uchun ham majlislarda ko‘proq u emas, balki barcha xodimlar gapiradilar, oxirgi qarorni chiqarish va so‘zlarni yakunlash, umumlashtirish huquqidan u to‘liq

foydalanadi.

Gibsh va Forverglarning tahlillariga ko‘ra, bunday boshliq rahbarlik qilgan jamoalarda ma’naviy-ruhiy muhit juda yaxshi, ishchilar jamoadan, ishdan qoniqish hosil qilganlar, ishdan ketish hollari kam-u, lekin ishlab chiqarish zo‘rg‘a norma holatida bo‘lar ekan.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mamnun yoki mamnun emasligini bilish qiyin. Unda ta’qqliash, po‘pisa bo‘lmaydi, uning o‘rniga, ko‘pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo‘q, boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, guyoki boshqa «koinot» da yurganga o‘xshaydi. Olimlar fikricha, bunday rahbar ishni olib borgan jamoalarda barcha ko‘rsatkichlar doimo orqada, kadrlarda qo‘nim ham bo‘lmaydi. Liberal rahbar kelishivchanlik asosida ishni boshqaradi. Jamoada bo‘layotgan ba’zi masalalarda o‘z fikriga ega bo‘lmay, qaror qabul qilishda va uni bekor qilishda o‘z tamoyiliga ega emas.

Nazorat savollar:

1. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga aksiologik, akmeologik yondashuvini tushuntirib bering.
2. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga kreativ yondashuvini tushuntirib bering.
3. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga akmeologik yondashuvini tushuntirib bering.
4. Ta’lim menejerining innovatsion kreativ yondashuvini tushuntirib bering.
5. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga deontologik yondashuvini tushuntirib bering.
6. Ta’lim menejerining innovatsion faoliyatiga refleksiv yondashuvini tushuntirib bering.
7. Rahbarlik faoliyatidagi boshqaruv stillarini sanab bering.
8. Avtoritar, demokratik va liberal stillarni tushuntirib bering.

Adabiëtlar:

1. Baubekova G. Pedagogicheskoe masterstvo.- T.,2000.
2. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalr, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo‘llanma)-T.:2013.-279 b

3. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
4. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.

3-MAVZU: INNOVATSION FAOLIYATDA PEDAGOGIK MAHORATNING ROLI (2 soat)

Reja:

- 1.1. Ta’lim menejeri faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllari (media aloqa, veb. muloqot, elektron qabul va boshqalar).
- 1.2. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash mazmuni, shakl va usullari.
- 1.3. Innovatsion faoliyatda pedagogik mahoratning roli.

Tayanch tushunchalar: *innovatsion shakllar, innovatsion rivojlanish, pedagogik mahorat.*

1.1. Ta’lim menejeri faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllari (media aloqa, veb-muloqot, elektron qabul va boshqalar).

Ta’lim muassasalari rahbar kadrlari bugungi kunda o‘z faoliyatini elektron shakllarda olib borishi mumkin – videoaloqa konferensiya, vebinlar va elektron qabul tizimlari orqali. Bular xammasi elektron xuqumat tizimlariga kiradi.

Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralalararo elektron hamkorlik qilishni ta’minalashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir.

Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining samaradorligini, tezkorligini va shaffofligini ta’minalash, ularning mas’uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik sub’ektlari bilan axborot almashishni ta’minalashning qo‘srimcha mexanizmlarini yaratish;

- ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo‘yicha imkoniyatlar yaratish;

- o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma’lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reestrini shakllantirish;

- aholi va tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o‘zaro hamkorligi va ularning ma’lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinushi mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida «bir darcha» prinsipini joriy etish;

- tadbirkorlik sub'ektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiy lashtirushi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berish jarayonlarida, shuningdek davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek communal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

- naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirish.

Elektron hukumatning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi;
- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarining teng ravishda foydalanishi;
- «bir darcha» prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish;
- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish;
- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish;
- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash.

Davlat organlarining elektron hukumat sohasidagi faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq ochiq va shaffof tarzda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchilarga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi axborot ommabop va ochiqdir hamda u elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Elektron davlat xizmatlari ko'rsatuvchi davlat organlari ariza beruvchi so'rovining ko'rib chiqilishi holati va xizmatlar ko'rsatilishi natijalari to'g'risidagi axborotni tegishli xabarlarini elektron shaklda yuborish yo'li bilan uning talabiga ko'ra taqdim etadi.

3.2. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash mazmuni, shakl va usullari.


Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy

tajribalarni o‘rganish, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma’lumotlilik darajasi, intelektual salohiyat, ijtimoiy faoliik, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyatga tatbiq etish;
3. Pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlar bosqichlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:



Innovatsiyalar bilimlarni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning asosiy xususiyatini ifoda

etadi. Iqtisodchilar tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar bugun iqtisodiy yuksalishning asosiy manbai va korxonalar, mintaqalar hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining muhim omilidir. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ekspertlari hisob-kitoblariga ko‘ra, keyingi yigirma yilda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishi bevosita innovatsiyalar bilan bog‘liq.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning bir qancha prinsipial xususiyatlari va yo‘nalishlarini ifodalash mumkin (ularning ayrimlari yangi yo‘nalish emas, balki innovatsiyalarning yangi tushunchalari hisoblanadi):

1. Tadqiqotlar va ishlanmalar innovatsiyalar uchun bilimlarning yagona manbai hisoblanmaydi. Bozorni o‘rganish, raqobatchilar va sheriklar tajribasi innovatsion axborotning ko‘p foydalanadigan manbalarini tashkil qiladi.
2. Innovatsiyalar iqtisodiyotning faqat ilmtalab sektorlari uchun imtiyoz hisoblanmaydi. Innovatsion faoliyat muhim va bugungi kunda sanoat tarmoqlari, xizmatlar sohasi hamda iqtisodiyotning davlat tarmog‘i, jumladan, davlat boshqaruvi organlarida amalga oshirilmoqda.
3. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli (fundamental tadqiqotlardan tijorat uchun sotish) noto‘g‘ri. Innovatsiyani zamonaviy tushunish innovatsion jarayonlarning interfaol va tizimli modelidan boshlanadi va ushbu modelda innovatsiya tizimlari (mintaqaviy, milliy va xalqaro) muhim o‘rin tutadi. Mazkur tizimlar doirasida esa yangi ilmiy va texnologik bilimlar yaratiladi, joriy etiladi hamda ulardan foydalilanadi, innovatsion jarayonlar qo‘llab-quvvatlanadi.
4. Innovatsiyalar jadallashmoqda va ularni rag‘batlantirish raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.
5. Innovatsion jarayonlar yanada globallashmoqda.
6. Korxonalar keng ko‘lamli texnologiyalarga tayangan holda, ko‘p hollarda bilimlarni tashqaridan olishga majbur bo‘lmoqda. Texnologik alyanslar, ilmiy tashkilotlar bilan shartnomalar, innovatsion faol korxonalar tarmoqlari va klaterlari soni ko‘paymoqda.

Iqtisodiy rivojlanishda axborot va bilimlarning muhimligini umumiy anglashni e’tirof etish, siyosiy doiralar, biznes vakillari, menejerlarning raqobatbardoshlikni ta’minlashda innovatsiyalar muhim rol o‘ynashiga qat’iy ishonishi bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirishni belgilovchi yana bir zamonaviy yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishni rivojlanish omili sifatida baholamay bo‘lmaydi. Jamiyat va iqtisodiyot “aksini ko‘rsatuvchi, refleksiyali tizimlar” hisoblanadi, iqtisodiy o‘sish omillari to‘g‘risidagi tasavvurni o‘zgartirish o‘z-o‘zidan bu tizimlarni ham o‘zgartiradi va ularning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bilimlar va

innovatsiyalar muhimligini anglash menejmentning ma'lum darajada bozorlarda firmalar o'zini tutishi va ularni rivojlantirish strategiyasini belgilaydigan zamonaviy yo'nalishlarini shakllantiradi (bilimlarni boshqarish, innovatsiyalarni boshqarish). Buni davlat darajasida anglash bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishning davlat strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqishga undaydi.

Keyingi o'n yilda bilimlarni yaratish, yetkazib berish va qayta ishlash vositalariga ta'sir ko'rsatgan texnologik o'zgarishlar, ularni yaratish va yetkazib berish, texnologik o'zgarishlar ko'لامи ayrim ekspertlarning yangi bilimlar davri bo'sag'asida turganimiz haqidagi taxminga kelishini taqozo etdi. Og'zaki an'analar, yozma so'z, keyinchalik esa bosma so'zlarga asoslangan bilimlar shakllaridan boshlab, raqamli ommaviy axborot vositalari rivojlanishi tarmoqlarni yetkazib berishlarini jadallashtiradigan gorizontal o'q va birikishni jadallashtiradigan vertikal o'q bo'yicha mislsiz kengaytirishni rag'batlantirdi. Xalq farovonligini ta'minlash va mamlakatimizning jahondagi yuqori pozitsiyani saqlash uchun ko'proq va tezkor muloqot qilishimizni talab qiladigan davrga qadam qo'ymoqdamiz. Interfaollik – ushbu yangi bilimlar uslublarining yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Aslida esa, manbadan jamiyatga markazlashtirilgan kommunikatsiyani ta'minlaydigan radio, televidenie yoki matbuot kabi "bir tomonlama ommaviy axborot vositalari" va ilk bor masofadan turib "yuzma-yuz" gaplashish imkonini bergen telefon yoki kechiktirmasdan bog'lanishni, multimedya interfeyslari, avvalambor, ulangan odamlar va tashkilotlarga real vaqtda o'zaro hamkorlik qilish imkonini taklif etadigan Internet kabi interfaol ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi farqni aniqlashimiz darkor.

Milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish innovatsion faoliyatning muhim jihatlaridan hisoblanadi. Shu bois, sanoat korxonalaridagi mavjud moddiy-texnik bazani yangilash, ishlab chiqarish ob'ektlarini rivojlantirish, yangi faoliyat turlarini o'zlashtirish, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarda innovatsion muhitni yaratish, innovatsion ishlab chiqarishni rag'batlantirish innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning asosiy vazifalaridan biridir.

Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, raqobatchilikka asoslangan biznes muhitini yanada rivojlantirishda davlat tomonidan innovatsion siyosatni olib borish muhim ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Chunki davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiyashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan xo'jalik sub'ektlarida innovatsion jarayonlarni strategik boshqarishning ahamiyati ortib bormoqda.

So'nggi paytlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar, mutaxassislar hamda olimlarning ilmiy tadqiqotlarida "innovatsiya", "innovatika", "innovatsion faoliyat", "innovatsion muhit", "innovatsion jarayonlar",

“innovatsion salohiyat”, “milliy innovatsiya tizimi”, “innovatsion mahsulot”, “innovatsion ishlab chiqarish”, “innovatsion hudud” kabi atamalarga ko‘proq urg‘u berila boshlandi.

“Innovatsion jarayonlar” iborasi ilmiy tadqiqotlarimizda o‘rganish ob’ektidan biri bo‘lganligi bois maqolada mazkur iboraga alohida to‘xtalib o‘tamiz. Innovatsion jarayonlarni boshqarishga oid ilmiy adabiyotlarda “innovatsion jarayon” atamasiga – g‘oyalarni aniq bir mahsulot ko‘rinishiga kelishini belgilovchi, yangi texnika va texnologiyalar hamda xizmatlardan foydalanishni ommalashtiradigan, ilmiy bilimlarni innovatsiyaga aylanishini ta’minlaydigan jarayon deb ta’rif berilgan. Demak, innovatsion jarayonlarning boshqarish strategiyasini umumiylar mamlakatning iqtisodiy mavqeini mustahkamlash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, iste’molchilarining talablarini qondirish va yuqori texnologik ishlab chiqarishni ta’minalashga yo‘naltirilgan maqsadlarga erishishning boshqaruv rejasi, deb aytishimiz mumkin. Xususan, innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida aniq strategiyani tanlash – innovatsion rivojlanishning mumkin bo‘lgan turli yo‘llari va usullari ichidan eng maqbulini tanlab olishdir. Shu bilan birga strategiyani tanlash o‘z navbatida, innovatsion faoliyatni jadallashtirish, sanoat korxonalarini raqobatga bardoshlilik harakatlarini yagona tizimga keltirishdan iborat.

Mutaxassislarining fikricha, so‘nggi 10 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda ilmiy hajmdor yuqori texnologiyalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hamda ushbu mahsulotlar eksporti mikroelektron, optik tola, radioelektron, lazer, yadro va kompyuter texnologiyalari kabi sohalarda sezilarli o‘sishga erishilmoqda.

3.2. Innovatsion faoliyatda pedagogik mahoratning roli.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

- 1) pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;
- 2) kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
- 3) pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;
- 4) pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Rahbarning pedagogik faoliyati samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan har xil ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, o‘kuvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilalar tashkil etadi.

**Педагогик маҳоратни оширишда бошқарув санъатидан
фойдаланишда таълим менежментининг долзарб масалалари:**

Таълимда мақсадни аниқ қўя билиш ва бош ғоялар ечимиға эътибор бериш.

Педагогик жамоада сўз ва иш бирлигини йўлга қўйиш, соғлом мұхит яратиш.

Таълимда Давлат таълим стандартлари талаблари ижросини сифатли кафолатлаш.

Жамоа ва ўқувчилар орасида онгли интизомни шакллантириш

Ҳар бир касбдош педагогга самимий муносабатда бўлиш

Таълим-тарбия ишларини олиб бориш учун соғлом мұхит ва моддий шароит яратиш

Таълим-тарбия жараёнида сифат ва самарадорликни таъминлаш

Nazorat savollar:

1. Ta’lim menejeri faoliyatini tashkil etishning innovatsion shakllarini sanab bering.
2. Videoaloqa konferensiyani tashkil etish usullarini sanab bering.
3. Rahbarning elektron qabulxonasi deganda nimani tushinasiz?
4. Innovatsion rivojlanish dasturi nima?
5. Innovatsion faoliyatda pedagogik mahoratning rolini tushuntirib bering.

Adabiётлар:

1. Baubekova G. Pedagogicheskoe masterstvo.- T.,2000.
2. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalr, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo’llanma)-T.:2013.-279 b
3. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim

texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.

4. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: TA'LIM MENEJERI FAOLIYATINI ILMIY TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2 soat)

Ishning maqsadi: Innovatsion faoliyat diagnostikasi va kvalimetriyasi tushunchalarini o‘rganish, boshqaruv madaniyati va rahbar ma’naviyati haqida o‘z fikrlarini tahlil etish.

Vazifalar:

1-topshiriq.

Mavzuning tayanch iboralariga (innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion kompetentlik) sinkveyn yozing.

2 – topshiriq.

Tushunchalar tahlili jadvalini to‘ldiring.

Tushunchalar	Mazkur tushunchalarning mazmunini qanday izohlaysiz...	Mazkur tushunchalarni ta’lim sifati menejmentidagi o‘rni nimada...	Qo‘shimcha ma’lumot
Innovatsiya			
Novatsiya			
Innovatsion faoliyat			
Innovatsion kompetentlik			

3 – topshiriq.

O‘z sohasingizga oid ta’limdagi zamonaviy innovatsiyalarini aniqlang, ularning xususiyatlaridan kelib chiqib, klaster yarating.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Yermakov D.S. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii// “Pedagogika”. – 2011. - № 4. – S. 8-16.
2. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.
3. G.J.Hasanova. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish. 2006. BDU – T., - B.11-12.
4. Ivanov M.M., Kolupaeva S.R., Kochetkov G.B. SShA: upravlenie naukoy i novovvedeniyami. - M.: Nauka, 1990. - S. 23.

2-MAVZU: TA’LIM MENEJERI FAOLIYATINI INTERAKTIV VOSITALARNI QO‘LLAGAN HOLDA NOAN’ANAVIY TARZDA INNOVATSION TASHKIL ETISH VOSITALARI (2 soat)

Ishning maqsadi: ta’lim menejeri faoliyatini interaktiv vositalarni qo‘llagan holda noan’anaviy tarzda innovatsion tashkil etish vositalari (audiovizual vositalar, media aloqa, veb, muloqot, evristik suhbat va boshqalar)ni o‘rganish.

Vazifalar:

1-topshiriq.

Mavzuning tayanch iboralariga (audiovizual vositalar, media aloqa, veb, muloqot, evristik suhbat) sinkveyn yozing.

2 – topshiriq.

Tushunchalar tahlili jadvalini to‘ldiring.

Tushunchalar	Mazkur tushunchalarning mazmunini qanday izohlaysiz...	Mazkur tushunchalarni ta’lim sifati menejmentidagi o‘rni nimada...	Qo‘srimcha ma’lumot
--------------	--	--	---------------------

audiovizual vositalar			
media aloqa			
veb muloqot			
evristik suhbat			

3 – topshiriq.

Assement.

<p>Test:</p> <p>1. Innovatsiya bu...</p> <ul style="list-style-type: none"> A. Takomillashtirish B. Yangilik kiritish C. Modellashtirish D. Yangilash 	<p>Muammoli topshiriq:</p> <p>Innovatsion g‘oya asosida innovatsion loyihasini tanlovga taqdim ettingiz. Lekin loyihangiz o‘tmadi. Nima qilasiz?</p>
<p>Tushuncha tahlili:</p> <p>Ta’lim menejeri faoliyatini interaktiv vositalarni qo‘llagan holda noan’anaviy tarzda innovatsion tashkil etish vositalarini sanab bering</p>	<p>Amaliy ko‘nikma:</p> <p>Innovatsion ta’lim usullariga 5 ta misol keltiring:</p>

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yermakov D.S. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii// “Pedagogika”. – 2011. - № 4. – S. 8-16.
2. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.
3. G.J.Hasanova. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish. 2006. BDU – T., - B.11-12.
4. Ivanov M.M., Kolupaeva S.R., Kochetkov G.B. SShA: upravlenie naukoy i

novovvedenyami. - M.: Nauka, 1990. - S. 23.

3-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATI YO'L XARITASINI TUZISHDA TA'LIM MENEJERINING INNOVATSION KOMPETENTLIGI (2 soat)

Ishning maqsadi: OTM faoliyati yo'l xaritasini tuzish va amalga oshirishda ta'lismenejerining innovatsion kompetentligi. Ta'lismenejeri kasbiy kompetentligini baholash indikatorlari va unga innovatsion yondoshuv.

Vazifalar:

1 – topshiriq.

O'z innovatsion faoliyatini SWOT-tahlilini qilib bering.

2 – topshiriq.

OTM innovatsion faoliyatini SWOT-tahlilini qilib bering.

«SWOT-tahlil» metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength) – kuchli tomonlari

W – (weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity) – imkoniyatlari

T – (threat) – to'siqlar

3 – topshiriq.

OTMning innovatsion rivojlanish strategiyasini tuzing.

4 – topshiriq.

SCAMPER usuli asosida innovatsiyani yarating (darslik yaratish misolida).

SCAMPER	<p>Substitute (Almashtirish)- nima bilan almashtirish mumkin?</p> <p>Combine (Birlashtirish)- nima bilan birlashtirish mumkin?</p> <p>Adapt (Moslashirish)- nima baln molashtirish mumkin?</p> <p>Modify/Magnify (Modifikatsiya boshqa turi (holati))- Qanday yaxshilashim mumkin? (katta, uzoqroq, balandroq, ortiqcha ishlangan, qo'shimcha funksiyalarni bajarish)</p> <p>Put To Other Uses (boshqa sohalarda qo'llash)- Nima o'zgarishi mumkin? (uning miqyosidagi o'sish yoki kamayishi, shakli o'zgarishi, belgilar (masalan, rang) va boshqalar)</p> <p>Eleminate (Qisqartirish)- yana qanday holda qo'llash mumkin?</p> <p>Rearrange/Reverse (Tartibini o'zgartirish) - Nimani qayta tiklash mumkin? (Buyurtmani o'zgartirish, komponentlarni almashtirish, tezlik va boshqalar)</p>
---------	--

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yermakov D.S. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii// “Pedagogika”. – 2011. - № 4. – S. 8-16.
2. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste'dod” jamg‘armasi, 2008.
3. G.J.Hasanova. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish. 2006. BDU – T., - B.11-12.
4. Ivanov M.M., Kolupaeva S.R., Kochetkov G.B. SShA: upravlenie naukoy i novovvedeniyami. - M.: Nauka, 1990. - S. 23.

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
“Assesment” texnologiyasi “Assessment technology”	Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Dasturiy ta’lim Program education	1) o‘qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo‘lgan muammolar, o‘quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies
Didaktik o‘yinlar Didactic games	O‘rganilayotgan ob’ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faoliyklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied
Ijodiy loyiham Creative projects	Individul yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta’lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilar)ni yaratishga	The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes)

	yo‘naltirilgan loyihalar	that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
Imitatsion o‘yinlar Imitation games	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o‘rnlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko‘chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo‘naltiradigan o‘yinlar	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories
Individual ta’lim Individual education	Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta’minalashga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process
Innovatsion ta’lim Innovative education	Talabada yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim	Education that allows to develop skills and qualities f a student
Innovatsion faoliyat	Yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos	An activity carried out for solving a set of

Innovative activity	kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
Innovatsiya Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
Interfaol ta’lim Interactive aducation	Talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
Ishbilarmonlik o‘yinlari Business games	Ma’lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to‘g‘ri, oqilona uyushtirishga doir ko‘nikma, malaka va sifatlarni o‘zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o‘yinlar	Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their effective and proper organization
“Keys-stadi” texnologiyasi “Case study” technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
Loyihalash Projecting	Boshlang‘ich ma’lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl,	An action aimed at developing the essence of an activity or process,

	metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalahtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	activity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
Loyiha Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha metodi A method of project	O‘quv jarayonini individualashtirish, talabaning o‘zini mustaqil namoyon qilishini rejalahtirish, o‘z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta’lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students’ performance, control and proper organization of an activity
Loyiha ta’limi A study of project	Ta’limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a plan and aim that have educational characteristics
Mahorat darslari Master classes	Ochiq tashkil etilib, ilg‘or pedagogik tajribalarni targ‘ib etishga yo‘naltirilan samarali o‘qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
Moderator Moderator	Masofaviy ta’lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbati va	A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums

	forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	organized in the frames of distance learning
Modellashtirish Modeling	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to‘la yorituvchi modelni yaratish	Developing a model that discloses principal essence of an event, process and system
Model Model	Real, haqiqatda mavjud bo‘lgan ob’ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o‘xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Modernizatsiya Modernization	Ob’ektning yangi talablar va me’yorlar, texnik ko‘rsatmalar, sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
Modul Module	1) tizim ichidagi o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodalovchi atama; 3) o‘quv materialining mantiqan tugallangan birligi	1) units that consists of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
Muammoli vaziyat Dilemma	Talabalarning ma’lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal etilayotgan masala bilan bog‘liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
Muammoli	O‘qituvchi tomonidan	A lecture aimed at

ma’ruza	talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo‘naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan ma’ruza	increasing students’ study activity in solving an issue or dilemma
Muammoli ta’lim Problem education	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik taddiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammoli ta’lim texnologiyalari Problem education technologies	talabalarda ijodiy izlanish, kichik taddiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyalari	The technologies that develop students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammo Problem	Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala	an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved
Novatsiya Novation	Tizimdagи ayrim elementlarnigina o‘zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system
Pedagogik muammo	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo‘lgan	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of

Pedagogical problem	pedagogik xarakterdagi masala	solution
“Portfolio” Portfolio	Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to‘plami	A set of autobiographical documents
Rivojlanish Development	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual’s physiological and intellectual development
Rivojlantiruvchi ta’lim Developing education	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to‘la ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at revealing and developing students’ inner capacities
Rolli o‘yinlar Role-playing games	Ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar	Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations
Syujetli o‘yinlar Plot games	Pedagogik vogelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtiroy etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar	Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations
Tadqiqot loyihalari Projects of research works	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
Ta’lim jarayonini loyihalashtirish Projecting the educational process	O‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to	A targeted educational activity organized in order to develop students’ skills in carrying out independent actions to plan and

	ommaviy baholashgacha bo‘lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyati	organize activites and its assessment
Ta’lim innovatsiyalari Educational innovations	Ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
Ta’lim tizimini modernizatsiyalash Modernization of educational system	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olish bo‘lgan talabini qondirish yo‘lida uzlusiz ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi	Improving or developing an existing mechanism in order to provide sustainable development of continuous educational system that meets students’ needs and interests as well as society’s social, economic and cultural and country’s skilled personal needs
Texnologik model (pasport) Technological model (passport)	Ta’lim yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirning asosiy ko‘rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics
Tyutor Tutor	O‘quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi, ma’ruza o‘qituvchisi bilan talaba o‘rtasida ta’limiy aloqani o‘rnatuvchi ustoz,	A teacher, coach who uses interactive methods for courses and establishes learning communication between a student and lecturer

	murabbiy	
Fasilitator	Masofaviy ta’lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruqlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, effectively and objectively assesses activity of groups
Franchayzing	O‘zaro hamkor universitetlarning bir-birlariga o‘zlari tomonidan tashkil etiladigan masofaviy ta’lim kurslarini tashkil etish huquqining berishi	Rights that are given by partner universities to other universities for carrying out distance learning courses
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
Student-centered education		
Shaxsni rivojlantirish Developing an individual	Individida vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individual
Edvayzer	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihibalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
Advisor		
O‘yin texnologiyalari	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha	One of the types of education (pedagogical

(o‘yin ta’limi) Game technologies (game learning)	ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student
O‘quv loyihasi Learning project	1) talablarining muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence
Hamkorlik ta’limi Cooperation education	O‘quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birligida o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning

	etilishini ifodalovchi ta'lim	process
Hamkorlik ta'limi texnologiyalari Cooperation education technologies	O‘quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, shuningdek, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ta’minlovchi ta’limiy xarakterdagi texnologiyalar	Educational technologies that allow to establish relationships based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Adabiyotlar, elektron ta'lif ashelari va didaktik vositalar.

Adabiyotlar, elektron ta'lif ashelari va didaktik vositalar.

A. Adabiëtlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston,2018.
2. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
4. Baubekova G. Pedagogicheskoe masterstvo.- T.,2000.
5. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: Toshkent islom universiteti.- 2011.
6. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Direktoring ishkitobi (amaliy tavsiyalar). – T.: «Fan va texnologiya» nashrieti, 2007. – 122 b.
7. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta'lif va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lif tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o'quv qo'llanma)-T.:2013.-279 b
8. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017, 60 b.
9. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2019, 68 bet.
10. Kodjapirova G.M. Pedagogika v sxemax, tablitsax i opornyx konspektax./ M.:Ayris-press, 2016.
11. Natanzon E. Sh. Priemy pedagogicheskogo vozdeystviya. - M, 2012. - 202 s.
12. Sergeev I.S. Osnovy pedagogicheskoy deyatelnosti: Uchebnoe posobie. – SPb.: Piter, 2014.

B. Elektron ta'lif ashelari:

1. "Rahbar faoliyati, mahorati va madaniyati" mavzusida slaydlar to'plami (o'zbek va rus tillarida).
2. "Interfaol ta'lif va interfaol metodlar" mavzusida slaydlar to'plami (o'zbek va rus tillarida).
3. "Ta'lif muassasalarida o'quv mashg'uloti metodikasi va texnikasi" mavzusida slaydlar to'plami (o'zbek va rus tillarida).
4. "Boshqaruv pedagogikasi" mavzusida slaydlar to'plami (o'zbek va rus tillarida).

5. “Zamonaviy dars” mavzusida videofilm.
6. “Boks pop” o‘qituvchilar haqida fikrlar (fonoëzuv).
7. “Dars va darsdagi pedagogik vaziyatlar” mavzusida o‘qituvchilarning darslaridan videolavhalar.
8. Mavzularni qiziqarli yoritishga kerakli turli xil videoroliklar.

V. Didaktik vositalar:

- *jihozlar va uskunalar: elektron doska, magnit sinf taxtasi, flipchart sinf taxtasi, magnitlar, tarqatma materiallar, marker va flomasterlar, o‘quv qo‘llanmalari va sh. k.*
- *video-audio uskunalar: videomagnitonfon, proektor, videofilm, videodisklar, fonoëzuv va sh.k.*
- *kompyuter va multimediali vositalar: videotrening o‘tkazish uchun maxsus moslamalar.*

Elektron ta’lim resurslari:

1. www.tdpu.uz.
2. www.pedagog.uz.
3. www.ziyo.edu.uz.
4. www.ziyonet.uz.